



“QISASI RABG‘UZIY” ASARIDA HUD ALAYHISSALOM NA‘TI VA UNING ALISHER NAVOIYNING “TARIXI ANBIYO VA HUKAMO” ASARI BILAN QIYOSIY TAHLILI

Muallif: Xakimova Komila Kobiljon qizi ¹

Affiliyatsiya: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 1-bosqich magistranti ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20229931>

ANNOTATSIYA

Nosiruddin Burhoniddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” va Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarlarida Hud alayhissalom na‘ti, na‘tlarning turlari, asarlardagi ma‘lumotlarning qiyosiy tahlili, ularning manbalarini tahlil qilish.

Kalit so‘zlar: she‘riy na‘t, nasriy na‘t, “Qisasi Rabg‘uziy”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, Qur‘on, Tavrot, Hud, Od qabilasi, azobli shamol, qora bulut, ayamajiz.

Hud alayhissalom “Qur‘oni Karim” da nomlari keltirilgan payg‘ambarlardan biridir. “Kalomulloh”ga ko‘ra, U Od qavmidan bo‘lib, o‘z qavmini to‘g‘ri yo‘lga boshlash uchun payg‘ambar qilib yuborilgan. Bu qavm gavdali, jismonan baquvvat kishilar bo‘lib, Yaman va Ummon o‘rtasidagi Avqof degan joyda yashagan. Ular butga sig‘ingan, yolg‘iz Allohga ibodat qilishga da‘vat etgan Hudni tahqirlab, yolg‘onchi va zaif deb atashgan [7: 213]. Johilliklari, sarkashliklari oqibatida Hudning qarg‘ishi, Allohning qahriga uchrab halok bo‘lishgan. Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” va Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida ham Hud alayhissalom haqida qissa mavjud bo‘lib, u Hud alayhissalom ta‘rif-u tavsifiga bag‘ishlangan maxsus nasriy va she‘riy na‘t bilan boshlanadi. “Qisasi Rabg‘uziy” dagi Hud alayhissalom na‘ti quyidagicha:

Hud ibn Abdulloh ibn Riyoh ibn al-Julud ibn Od ibn Avaz ibn Iram ibn Som ibn Nuh alayhis-salom. Aymishlar: besh payg‘ambar arabdin turur: Hud va Solih va Shis va Ismoil va Muhammad alayhimis-salom. Ul va ilaa Odin axohum Hudan ¹ xil‘atin kizgan, Ya qavmi u‘budu allaha², teb farmon tegurgan. Ya Hudu ma ji‘tanaa bibayyinatini hujjatin³ eshitgan, Fa‘tinaa bima ta‘uduna⁴ so‘zin tinglagan, Va uballig‘ukum ma ursiltu bihi⁵, teb so‘zlagan, Va lakinniy

arokum qavman tajhaluna⁶ javobin bergan Hud alayhis-salom [5: 47].

Nuhdan kezin Hud yalavoch bo‘ldi uch yuz yil kechib,
Yurir erdi ko‘p xaloyiqdin, shari‘atdin qochib,

¹ Va ilaa Odin axohum Hudan- va Od qabilasiga ularning birodarlari Hudni (yubordik)

² Ya qavmi u‘budu allaha-ey mening qavmim, Ollohga ibodat qilinglar

³ Ya Hudu ma ji‘tanaa bibayyinatini hujjatin- ular dedilar: Ey Hud, sen bizlarga birorta hujjat keltirmading

⁴ Fa‘tinaa bima ta‘uduna-bas, va‘da qilgan narsangni olib kel

⁵ Va uballig‘ukum ma ursiltu bihi- va men sizlarga olib kelgan narsamni yetkizmoqchiman

⁶ Va lakinniy arokom qavman tajhaluna- va lekin sizlarni johil qavm ko‘raman

Tunla-kunduz Hud tegurdi tengrimizning yorlig'in⁷,
"Sakiz ujmoqqa keling", teb haqni botildin⁸ sijib.
Rabqa yozib, yo'ldin ozib, sunmadin ding'a bo'yun,
Haqq'a tonib, xalqq'a yonib, butg'a sig'nib, hamr ichib,
Olmadilar Hud so'zin bitmadilar mavlog'a,
Hech kim ersa aymagan so'z aydilar yavloq ajib.
Aydi: "Yo qavmi u'badulloha" andin o'zga Tengri yo'q,
Sig'ingan haq hazrating'a yig'ladi yoshin sochib.
Umasg'a tegdi ersa un keturdi yolvorib,
Aydi ingrab: "Anta rabbi qodirun hayyun mujib",
Yetti tun, sekkiz kun ichra yoq bo'zun qildi ug'on,
Yigna yurtiguncha yeldin odiylarg'a yo'l ochib.
Hud payg'ambar alayhis-salom to'quz yasharda odiy bo'zuni keldi
Va ila Aadin axaxo'm Xudan [5: 48].

Rabg'uziy nasriy na'tda dastlab Hud ibn Abdulloh ibn Riyoh ibn al-Julud ibn Od ibn Avaz ibn Iram ibn Som ibn Nuh alayhis-salom deb uning nasabini keltiradi. So'ngra Hud, Solih, Shis, Ismoil, Muhammad alayhissalomlarning arablardan ekanligini ta'kidlaydi Va Nuh alayhissalomni ta'riflashga o'tadi. "Ul va ila aadin ahahum Hudan" xil'atin kiygan deydi. Buning ma'nosi "Od qabilasiga ularning birodarlari Hudni (yubordik)", demakdir. Bu "Mus'haf" dagi oyat bo'lib. Hud alayhissalomning Allohning ushbu so'zlarini o'ziga libos qilib kiyganligi ma'nosida kelmoqda. Ya'niki Hud alayhissalomga payg'ambarlik berilishidan maqsad Od qabilasini to'g'ri yo'lga boshlash edi. "Qisasi Rabguziy" ning Odam alayhissalom qissasida Odamning "inna-lloha istafa Aadama⁹ xil'atin kizgan" ligi aytilgan edi. Xil'at-qimatbaho libos, ustki kiyim bo'lib, u odatda ma'lum bir xizmatlari uchun a'yonlarga shoh tomonidan in'om qilingan. Demak, Odam alayhissalomga Alloh tomonidan "inna-lloha istafa Aadama" xil'ati berilgan bo'lsa, Hud alayhissalomga "ul va ila aadin ahahum Hudan" xil'ati tortiq qilinibdi.

Hud alayhissalomga "Ya qavmi u'budu allaha", ya'ni, "ey mening qavmim, Ollohga ibodat qilinglar" degan farmon keladi. Od qavmi: "Ya Hudu ma ji'tana bibayyinat in hujjatin- ular dedilar: Ey Hud, sen bizlarga birorta hujjat keltirmading, - deb javob beradilar. "Fa itina bima ta'uduna- bas, va'da qilgan narsangni olib kel", deydi. Hud alayhissalom ularga "Va uballig'ukum ma ursiltu bihi- va men sizlarga olib kelgan narsamni yetkizmoqchiman Va lakinni arokom qavman tajhaluna- va lekin sizlarni johil qavm ko'raman", deb javob beradilar. Nasriy na'tda, asosan, "Qur'on" dagi oyat va dalillar keltiriladi. Bu qissadagi ma'lumotlarning ishonchliligini asoslaydi. Xususan, "Qur'oni Karim" ning "Fajr", "Hud", "Ahqof" suralarida Hud alayhissalom haqida ma'lumotlar mavjud.

Nasriy na'tdan so'ng she'riy na't boshlanadi. Unda Hud alayhissalom bilan bog'liq voqealar mufassalroq yoritiladi. Birinchi bayt quyidagicha:

Nuhdan kezin Hud yalavoch bo'ldi uch yuz yil kechib,
Yurir erdi ko'p xaloyiqdin, shari'atdin qochib [5: 48],

Nuh alayhissalomdan uch yuz yil keyin Hud alayhissalomga yalavochlik beriladi. Birinchi baytning ikkinchi misrasida xatolik bo'lsa kerak. Chunki uni boricha o'qisak, u ko'p xaloyiq va sha'riatdan qochib yurar edi degan fikr kelib chiqadi. Bu

⁷ Yorliq- farmon, buyruq

⁸ Botil- buzuq, nohaq, asossiz

⁹ inna-lloha istafa Aadama-haqiqatdan Olloh Odamni tanlab oldi

mantiqan xato, chunki payg'ambarning xaloyiq va sha'riatdan qochib yurishi aqlga to'g'ri kelmaydi. Bu yerda xaloyiq va din so'zlari qo'shilib ketgan bo'lsa kerak. Agar ularni ajratib o'qisak, Ko'p xaloyiq din va sha'riatdin qochib yurar edi degan mazmun kelib chiqadi va bu to'g'riroq.

Tunla-kunduz Hud tegurdi tengrimizning yorlig'in

“Sakiz ujmoqqa keling”, teb haqni botildin¹⁰ sjiib [5: 48].

Ikkinchi baytda Hudning tun-u kun insonlarni iymonga, islomga da'vat qilgani, ya'ni Allohning farmonini bajarganligi, xalqni botildan, buzuqlikdan qaytarishga harakat qilganligi, agar to'g'ri yo'lga kirishsa, sakkiz Jannat ularga va'da qilinganligini aytadi.

Rabqa yozib, yo'ldin ozib, sunmadin ding'a bo'yun,

Haqq'a tonib, xalqg'a yonib, butg'a sig'nib, hamr ichib [5: 48],

Ammo yo'ldan ozgan, nodon, johil xalq dinga bo'yin egmaydilar. Allohdan tonadilar, butga sig'inadilar, mast qiluvchi narsalarni ichadilar.

Olmadilar Hud so'zin bitmadilar mavlog'a,

Hech kim ersa aymagan so'z aydilar yavloq ajib.

Aydi: “Yo qavmi u'badulloha” andin o'zga Tengri yo'q,

Sig'ingan haq hazrating'a yig'ladi yoshin sochib [5: 48].

“Qisasi Rabg'uziy” da yozilishicha Hud alayhissalom qirq yetti yil iymonga da'vat etadilar. Ammo Od qavmi u kishining so'zlarini tinglamaydi. Bu xalq quvati, qomati, ne'mati, muhlati, ma'siyati bilan barcha xaloyiqdan ustun edilar. Bir-birlaridan o'zish uchun saroylar qurishardi, ulkan butlar yasab ularga sig'inishardi. Hudni sen bizni tangrilarimizdan ayirgani keldingmi deb unga itoat qilmaydilar. Har xil so'zlarni aytib uni haqorat qiladilar. Hud Allohdan o'zga tangri yo'qligini aytadi. Tangri taologa ko'z yosh to'kadi.

Umasg'a tegdi ersa un keturdi yolvorib,

Aydi ingrab: “Anta rabbi qodirun hayyun mujib” [5: 48]

Hud alayhissalom Allohga yolvorib iltijo qildi. Alloh taolo uch yil yomg'ir yog'dirmaydi. Od qabilasining qiyin vaziyatlarda Makkaga odam yuborib qurbonlik qilish odati bor edi. Ular Mozid ibn Sa'd, Luqmon ibn Od, Qayl ibn Umarni Makkaga vakil qilib yuboradilar. Ular Muoviya ismli shaxsning uyida qolib yeyish, ichish, maishat bilan band bo'ladilar. Oxir yor-birodarlarini eslab, nimaga kelganlari yodlariga tushib Makkaga borib qurbonlik qiladilar. Mozid ibn Sa'd musulmon edi. U “Allohuma in kona Hudun sadiqan fa isqina¹¹” deb iltijo qiladi. Alloh taolo uch xil bulut yuboradi: oq, qora, qizil. Va bittasini tanlashini aytadi. Oq bulutda hech narsa yo'q, qizil bulutda nima borligini bilmaymiz, qora bulutda yomg'ir bo'lsa kerak deb qora bulutni tanlashadi. U azob buluti ekan. “Od qavmidan biror kishini tirik qo'ymasligini, ota-o'g'il qolmasligi” haqida nido keladi. Bu qora bulutga yetmish ming burundug¹² urilgan va ularning jilovi yetmish ikki farishtaning qo'lida ekan.

Yetti tun, sekkiz kun ichra yoq bo'zun qildi ug'on,

Yigna yurtiguncha yeldin odiylarg'a yo'l ochib [5: 48].

Jabroil alayhissalom farmoni bilan shamolni boshqaruvchi farishtaga yelni ochish buyrug'i beriladi. Farishta qancha ochishi kerakligini so'raydi. Sigir burnidan chiqadigan yel hajmicha, deb aytadilar Jabroil alayhissalom. Farishta agar uncha ochadigan bo'lsam yer yuzida na tuproq, na tog'lar, na dengizlar qoladi deb javob

¹⁰ Botil- buzuq, nohaq, asossiz

¹¹ U Allohuma in kona Hudun sadiqan fa isqina – ey bor Xudoyo, agar Hudning aytgani rost bo'lsa, inda bizlarni serob qil

¹² Burundug-jilov, no'xta

beradi. Unday bo'lsa, kichik uzukcha ochgin deydilar. Farishta igna teshigicha ochay deydi. Ochganda yel u tasavvur qilganidan ko'proq chiqadi. Shunday bir yel esadiki, tuproqlarni teskari qiladi, tuproq ostiga oyog'ini berkitgan insonlarni surib chiqaradi. G'orlarga berkinadilar. G'ordan tortib chiqaradi. Ustlaridagi kiyimlari shamolda uchadi, insonlarning terisini ajratadiki, suyaklari qoladi. Shamol chorshanba kuni boshlanib, chorshanba kuni tugaydi. Yetti tun, sakkiz kun sovuq va kuchli shamol esadi. Rabg'uziy shuning uchun ham bu vaqtni "Ayyomi ajuz" deb atalishini yozadi. Bu so'z keyinchalik ayamajuz shaklini olgan bo'lib, qishning so'nggi kunlari bahorning boshidagi izg'irinli kunlarga nisbatan ishlatiladi. Shamol tingandan so'ng Hud alayhissalom chiqib keladilar. Tuproq ostida tirik qolgan insonlar u kishiga iymon keltiradi. Mazid va Luqmon Allohga shukr keltiradi. Qayl qayg'uga tushadi. Agar bular rost bo'lsa meni halok qilgin deydi. Yel keladi va uni halok qiladi.

Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida ham Hud alayhissalom ta'rifi keltirilgan U ham nasriy va she'riy qismlardan iborat. Rabg'uziy Hud alayhissalom nasabini Hud ibn Abdulloh ibn Riyoh ibn al-Julud ibn Od ibn Avaz ibn Iram ibn Som ibn Nuh degan edi. Navoiy esa Abdulloh binni Ramoh binni Horis binni Horut binni Avaz binni Eram binni Som binni Nuh, deb ta'riflaydi. Ba'zi kitoblarda uni Obir binni Solih binni Arfahshod binni Som binni Nuh deb ham aytishlarini ta'kidlaydi. Hud alayhissalom Od qavmini ellik yil iymonga da'vat qilganini aytadi, Rabg'uziy esa qirq yetti yil deb ma'lumot bergan edi. Hud alayhissalom ulardan noumid bo'lgandan so'ng ularni yomon duo qiladi va u duo mustajob bo'ladi. Tengri taolo ularni qahat balosiga muhtalo qiladi [6: 5] Navoiy bu voqeadan so'ng yetti yil yomg'ir yog'maganligini aytadi, "Qisasi Rabg'uziy" da esa uch yil deyilgan edi. So'ngra Luqmon ismli shaxsning ba'zi hamrohlari bilan Makkaga qurbonlik qilish uchun yuborilgani, Luqmon yashirin iymon keltirgani, ammo hamrohlari kofir ekanligi aytiladi. Ular duo qiladilar. Alloh uch xil rangda bulut yuboradi. U kofir yo'ldosh qora bulut suvli bo'ladi deb uni tanlaydi va Alloh ular so'ragan narsani beradi. "Tarixi anbiyo va hukamo"da bulutni kofir bo'lgan shaxs tanlaganligi aytiladi, va "Qisasi Rabg'uziy" da ham Mazid ibn Sa'd va Luqmon ibn Odning musulmonligi, Qayl ibn Umarning esa kofirligi va qora bulutni ham aynan u tanlaganligi aytilgan edi. So'ngra yetti kecha va sakkiz kun shamol esganligi o'z kuch qudratidan mag'rur xalqning xashakdek sovrilib ketganligi, tog'-u toshga urilib halok bo'lganligi, bu voqea shavvol oyida badrul-ajuz vaqtida sodir bo'lganligi aytiladi.

Alisher Navoiy Hud alayhissalomning hayoti ixtilofli ekanligi, ammo "Sohibi Guzida" uni kofirlarni daf qilgandan so'ng ellik yil yashaganligini aytganligini yozadi. "Tarixi Guzida", yoxud "Tavorixi Guzida" asari Qazviniyning asari bo'lib, unda dunyo yaratilishidan to 1329-yilgacha bo'lgan ma'lumotlar uchraydi. Alisher Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi Mulki ajam" asarlarida undan salmoqli foydalangan. Ushbu ma'lumotlardan so'ng Navoiy quyidagi ruboiyni keltiradi:

Ul qavmi azim dedilar oni Od,
Sardorlari Shadid yoxud Shaddod.
Bir dam yelidin oqibat ul ahli inod,
Xoshok kabi borchasi bo'ldi barbod [6: 5].

Ushbu ruboiy a-a-a-a tarzida qofiyalangan bo'lib, Od, shaddod, inod, barbod so'zlari qofiyaga olingan, taronayi ruboiy. Unda u buyuk qavmning Od deb atalishi, sardorlari Shaddod ekanligi (bu bilan ularning budparast ekanliklari ta'kidlanmoqda), bir damlik yeldan u qaysar xalqning xashakdek barchasi halok bo'lganligi aytilmoqda.

Alisher Navoiy arablar uni Hud deyishini, ibroniy tilda esa Obir deb atalishini aytadi. “Tavrot” ning birinchi kitobi “Ibtido” da Obir Ibir shaklida uchraydiki, bu Hud alayhissalommi, yo boshqa shaxs bu haqida aniq ma’lumot yo’q:

“Arpaxshodning Shilax degan o’g’li bor edi. Shilaxning bir Ibir degan o’g’li bor” [4: 13].

“Ibtido” dagi ma’lumotlarga ko’ra Ibir Shilaxning o’g’li edi, Shilax Arpaxshodning, Arpaxshod Som naslidan, Som esa Nuhning.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, Hud alayhissalom Od qabilasini iymonga da’vat qilish uchun yuborilgan payg’ambar bo’lib, uni da’vatiga ergashmagan, o’z kuch-u qudrati, salobati ishongan u qaysar xalq igna teshigidan chiqqan yeldan xashakdek sovrilib ketadi. Bu voqea bilan bog’liq ma’lumotlar “Qisasi Rabg’uziy” va Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida she’riy va nasriy shaklda uchraydi. Bu ma’lumotlar ba’zan bir-biriga teskari bo’lsa, ba’zan bir-birini to’ldiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. Биринчи жилд. -Тошкент: Фан, 1983.-656 б
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. Иккинчи жилд. -Тошкент: Фан, 1983.-644 б
3. Девону луғотит турк (индекс луғат). -Тошкент: Фан, 1967. -547 б
4. Ibtido. -Toshkent: Muqaddas kitobni tarjima qilish instituti, 2016. -94 b
5. Носуриддин Рабғузий. Кисаси Рабғузий. Биринчи китоб. -Тошкент: Ёзувчи, 1991. -272 б
6. Tarixi anbiyo va hukamo. www.ziyouz.com kutubxonasi. -94 б
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси (X- харфи). Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2000-2006-йиллар. - 252 б
8. Шайх Ахмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. -Тошкент: Хазина, 1996. -147 б
9. Wikipedia.uz internet sayti